

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.A.Axrorrova

«Yosh» tushunchasining lingvistik talqini 317

Г.М.Хошимов

Некоторые константы грамматики, касающиеся структурных особенностей гипотаксемы с адвербальным компонентом темпоральности 322

N.Z.Abduraxmonova, O.O.Yulbarsov, G'.G'.Abduvaxarov

Neologizm – kompyuter lingvistikasida tahlil birligi sifatida 329

M.Sharipova

Ingliz tilida onomatopeik so'zlarning fonosemantik tahlili 334

A.O'.Abdullayev

Ramzlarda shakl va mazmun munosabatlari 337

O'.A.Xudoynazarova

Islom ta'lomi asosida shakllangan diniy barqaror birikmalar 344

F.R.Turg'unova

Grammatik kompressiya orqali yangiliklar sarlavhalarini optimallashtirish. Strategiyalarni o'rghanish va auditoriyani jalb qilish 349

M.A.Abduvaxobova

Fransuz va o'zbek tillaridagi "Famille" – "Oila" semantik maydoniga doir 354

M.A.Kurbanov

Muloqotda noverbal vositalar yordamida madaniyat, urf-odatlar va adab shakllarining ifoda etilishi 358

M.M.Kaxarova, Sh.B.Tolipova

Nemis tilida og'zaki nutqni hamkorlik orqali rivojlantiruvchi mashq turlari va ulardan samarali foydalanish 364

M.Karimov

"O'tkan kunlar" romanidagi o'xshatishning inglizcha tarjimalarda aks etish masalalari 368

X.P.Муртозов

Вижагиҳои савтӣ ва услубии ҳодисаи афзоиш дар ашъори намояндагони сабки хурсонии адабиёти тоҷику форс 374

N.N.Odilova

A comparative analysis of spellonyms in contemporary english and uzbek literature 384

M.B.Shamsiyeva

Peyzaj matni murakkab sintaktik butunlik sifatida 388

I.T.Rustamov

Ingliz va o'zbek folklor janr matnlarining semantik maydoni 392

K.Ю.Феруза

Многоаспектная природа английских и русских провербиальных фразеовербализаторов концепта «head/голова/глава» и их лингвостилистические особенности 396

C.Э.Сайдова

Манзараи этнӣ-диалекталии аҳолии сурхондарёи шарқӣ 401

G.A.Komilova

Ingliz tilida siyosatchilar nutqida stilistik vositalarning nutq ta'sirchanligini oshirish vositasি sifatida qo'llanilishi 406

С.Ч.Мачитова

Антрапонимҳо – ифодагари хислатҳои инсон дар ғазалиёти абдураҳмони ҷомӣ 410

M.A.Matmusayeva

Maktabgacha ta'limda o'yinlar- soha terminlari sifatida 419

Y.Sh.Shuxratova

Sintaktik sathda o'xshatishlarning tabiatiga doir 423

H.H.Xoldorova

Study of the concept of "Field" in modern linguistics 426

D.I.Mirzayeva

Contextual-semantic analysis of fixed similes in english 429

K.T.Israilova

Ijtimoiy tarmoqlar tili va medialingvistika tavsifi 432



УО'К: 81.42

PEYZAJ MATNI MURAKKAB SINTAKTIK BUTUNLIK SIFATIDA

ПЕЙЗАЖНЫЙ ТЕКСТ КАК СЛОЖНОЕ СИНТАКСИЧЕСКОЕ ЦЕЛОЕ

LANDSCAPE TEXT AS A COMPLEX SYNTACTIC UNIT

Shamsiyeva Manzura Bababekovna 

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti v. b., (PhD)

Annotatsiya

Badiiy adabiyotda yaratilgan har qanday peyzaj muallif idrokidan kelib chiqib tasvirlanadi. Badiiy peyzaj – muallif tasavvurlarining makon elementlari bilan kesishuvni natijasida yuzaga keladi. Badiiy peyzaj – mental idrok bo'lib, xotira va moddiylilikni o'z ichiga olgan jarayonda subyektning adabiyot haqidagi bilimlari doirasida shakllanadi. Maqola Alisher Navoiyning "Saddi Iskandari" dostonidagi Nigor qishlog'i ta'rifni o'rinni olgan peyzaj matnining tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda muallif va retsipyentdagi idrok jarayonlari lingvokognitiv jihatdan tadqiq qilingan.

Аннотация

В художественной литературе любой созданный пейзаж изображается исходя из авторского восприятия. Художественный пейзаж – возникает в результате пересечения авторского воображения с элементами пространства. Художественный пейзаж – это ментальное восприятие, которое формируется в рамках познания субъектом литературы в процессе, включающем память и материальность. Статья посвящена анализу текста пейзажа с описанием деревни Нигор в эпосе Алишера Навои "Садди Искандари", в котором лингвокогнитивно исследуются процессы восприятия у автора и реципиента.

Abstract

In fiction, any created landscape is depicted based on the author's perception. An artistic landscape arises as a result of the intersection of the author's imagination with the elements of space. An artistic landscape is a mental perception that is formed within the framework of the subject's cognition of literature in a process involving memory and materiality. The article is devoted to the analysis of the text of the landscape with the description of the village of Nigor in Alisher Navoi's epic "Saddi Iskandari", in which the processes of perception between the author and the recipient are linguocognitively investigated.

Kalit so'zlar: badiiy matn, peyzaj, muallif, retsipyent, idrok, eshitish, hid bilish sezgilar, peyzaj elementlari.

Ключевые слова: художественный текст, пейзаж, автор, реципиент, восприятие, слух, обоняние, элементы пейзажа.

Key words: fiction text, landscape, author, recipient, perception, hearing, sense of smell, landscape elements.

KIRISH

Aksariyat badiiy matnlarda qaysidir darajada tabiat, tabiat hodisalari tavsifi uchraydi. V.N. Ryabova peyzaj komponenti tushunchasini ilmiy muomalaga kiritadi. Peyzaj komponenti semantik, grammatik va funksional belgilari tizimiga ega bo'lgan va matnda tavsifiy semantikani shakllantiruvchi, shuningdek, uning umumiy mazmuni rivojida ishtirok etuvchi murakkab kompozitsion elementlardan biri sifatida o'ziga xos matn birligi bo'lib, matn nazariyasini uning o'ziga xos manbalari, matn birliklarining xususiyatlari, egallab turgan o'rni, semantik va funksional ahamiyatini to'ldirish imkoniyatini beradi. Buning natijasida yozuvchi uslubining individualligi, obrazli tili muhim matn birliklari bahosi orqali aniqlanadi. Badiiy asarda tabiatni tasvirlash har doim muallif shaxsi, uning tasavvur va kechinmalari bilan bog'liq bo'ladi. Matn mazmuniy-daliliy ma'lumotdan tashqari voqealarda muallifning bahosi bilan bog'liq ravishda modal yoki mazmuniy-konseptual, bevosita matnning ustki tuzilmasida ifodalanmagan yashirin ma'lumotni ham o'zida aks ettiradi. Shuningdek, "badiiy matn qanchalik o'zida yashirin mazmunni jamlagan bo'lsa, uning badiiylik qiymati shunchalik ortadi". M. Prishvin ham o'z davrida bu haqda shunday deb yozadi: "Daraxt, qoya, daryo, gulagi kapalak yoki daraxt ildizlarida yashovchi zemleroykani tavsiflash uchun inson hayoti kerak, inson hayoti uni taqqoslash, daraxt, tosh yoki hayvonni jonlantirish uchun emas, balki avtomobil motori singari harakatning ichki kuchi uchun kerak" [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jahon tilshunosligida J.C. Shairp (1885. Elektron resurs), B.I. Bolkvadze (1995), L.I. Bronskiy (2003), H.A. Guriyenko (2005), V.A. Deputatov (2001), P.C. Jajiyev (2008), A.N. Kantomirova (2006), T.N. Kolokolseva (2003), H.A. Krass (1999), T.V. Leontyeva (2006), E.A. Panova (2010), Y. Sinsov (2002), O.V. Fevralyov (2007), A.A. Xatxe (2010), Y. Yasenskiy (1991) kabi olimlarning tadqiqotlari peyzaj matnlarida muallif shaxsi namoyon bo'lishining lingvistik tahliliga bag'ishlangan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Badiiy matnda tabiatni tasvirlash nafaqat funksional-semantic kategoriya, balki sintaktik birlik ham hisoblanadi, chunki ular odatda **murakkab sintaktik butunlik** (MSB) tarzida namoyon bo'ladi va muallifning badiiy strategiyasini amalga oshirish vositasi hisoblanadi, shu bilan birga, uning retsipyent tomonidan adekvat qabul qilinishini ta'minlaydi. Quyidagi misolda peyzaj tasviri murakkab sintaktik butunlik (MSB) hosil qilganini ko'rishimiz mumkin. Matn Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidan olindi. Asarda 97 ta geografik nom keltirilgan bo'lib, biz ushbu maqolada ulardan biriga to'xtalamiz. Matn Nigor – Hindistondagi o'rmon tavsifidan iborat bo'lib, 3 sahifani tashkil etadi, 55 ta gapdan iborat. *"Yuqorida Nigor degan qishloq haqida gapirilgan ediki, bu o'rmonzor ov qilish uchun nihoyatda qulay, ko'pgina turli-tuman qush va jonivorlari bor edi. U o'rmon emas, afsonaviy Eram bog'ining timsoli bo'lib, ajoyibligi bilan aql-u tilni lol qilar darajada edi. O'rmondan anbar atrining hidi esar, qora tuprog'idan esa bo'tako'z gulining bo'yi anqir edi. Sandal bilan obnus daraxtlari xuddi munchoq bilan qahrabodek yonma-yon turardilar. Sandal daraxti tomonidan esgan shamol kishi dimog'ini sandal hidiga g'arq qilar edi. Bu hidlar butun tog' va o'rmonlarni tutib ketgan, tuproqlar ham sandal isi bilan qoplangan edi. Daraxtlarning shoxiga chirmashgan sandalmisol ilonlar kumushbadan go'zalning sochidan qolishmasdi. Qalampirmunchoq sunbul tomonga egilgani kabi sunbul ham qalampirmunchoq tomon bosh eggan. Har bir daraxtning boshi ko'kka qarab cho'zilib ketgan bo'lib, quyosh barglar orasida ko'rinxay qolgan. Barglar quyosh nurini shunchalar to'sib tashlaganki, quyosh tuproqqa o'z shu'lasini soyalar orqali sochardi. O'rmondagi chinorlar o'z panjalarini (shox-shabbalarini) xinaga bo'yagandek, oftob nurlariga bo'yab olganlar. U yerdagi hindiy yong'oqlarning bo'yi osmonga yetganidan, go'yo yong'oq hididan falakning boshi aylanadigan bo'lib qolgan. Hamma yoq hindiy yong'oqzori bilan qoplangan bo'lib, shoxlaridan dorchinning hidi kelar edi. Zaytun daraxtlari ham osmonga tutashib ketgani tufayli charxi falakning zaytunlari bundan xijolatda edilar. Osmoni falakkacha bo'y cho'zib ketgan hamma daraxtlarning shoxlariga tok chirmashib chiqib ketgan. Yulduzlar dunyosini kuzatuvchi munajjimlar, u daraxtlardagi uzum boshlarini ko'rib, osmonda Hulkar yulduzining son-sanog'i yo'q ekan, deb o'ylaydilar. O'sha daraxt shoxlariga chirmashib ketgan toklar osmondagи afsonaviy Sidra daraxtiga kamand tashlab, uning shoxlarini o'rab olganday. U uzum boshlarini ko'rgan xomxayol o'g'ri uchun osmonga chiqish ham uncha qiyinmasdek tuyular edi.*

U daraxtlarning sariq barglari, kuz paytida, xuddi falakning har tomonga sochib qo'ygan ming-minglab yulduzlarini eslatardi.

Bu o'rmonzordagi har turli qushlar osmonni sayr qilib uchganlarida, qushga emas, balki qiyg'ir shaklidagi Uqob yulduziga o'xshab ketardilar. Gala-gala ajoyib to'tilarning dilkash navolari o'rmonning hamma yog'idan eshitilib turardi. Qaysi daraxtga ularning galalari qo'nsalar, u ko'm-ko'k bo'lar, ko'm-ko'k emas, go'yo ularga yashil tusli Xizr payg'ambar qo'ngandek tuyulardi. Bular qo'ngan daraxt bargsiz chinorga, yo'q, chinorga emas, ko'k osmonga o'xshab ko'karib qolardi. Ko'k esa osmon ham emas, gul niholiga, gul bo'lganda ham qizil rangli gulga o'xshar edi. Qizil to'tilarning rangi gulnorni eslatardi-yu, ammo tumshuqlari olov shu'lesi rangida edi. Ularning hamma yoqni bosib ketgan qizil-yashil rangi shamlar shu'lasidagi bir mahobatni ko'z o'ngingizga keltirar edi. Yana gala-gala gapiruvchi maynalar bor bo'lib, ular xuddi hindulardek so'zga usta edilar. Maynalar uchun xuddi hindu o'inchilarinikiga o'xshatib, oltinrangli kimson bilan ziynatlangan qafas qilingan. U to'mtaygan emas, zarvaraq tojga o'xshatib bezatilgan qafas. Unga solib qo'yilgan maynalar, qayoqdan chiqishni bilmay, tutqunlikdan zorlanib sayrar va gapirardilar. U yerning turlanib yuruvchi go'zal tovuslari go'yo malak toifasidan bir namuna edi. Ular har tomonga jilva qilib, mastlarcha noz bilan yurganlarida may kuvachasi kabi mastona bo'yin toblar edilar. Bularning bo'yinlari to'q ko'k-lojuvard tusli bo'lib, usti yana zarhal bilan qoplangan. Qirg'ovul va kakliklari o'z yurishi bilan kishining es-hushini o'g'irlar edi. Qirg'ovullar sarv daraxtiga tomon yurganlarida, sarvning o'zi ham guldstaga o'xshab tillarang

qirg'ovulga qarab egilar edi. Tovus esa Sidra daraxti ustida Jabroil farishtasi o'tirganidek, daraxtning eng yuqori shoxida o'tirar edi.

Bu qishloqning yerlarini zumurraddek sabzalar qoplagan, yashil osmon esa unga go'yo zabarjad sepib turardi.

Bu o'rmonning shimolida Sind daryosi bor, janubida Hind shahri qad ko'tarib turadi. Bu daryo ichida yuzlab kemalar falak dengizidagi yangi oydek sur'at bilan suzib yuradi.

Sharqiy chegarasida bir qamishzor bo'lib, uning tafsifini qilish uchun bir necha doston kamlik qiladi. Bu qamishlarning ichi boshdan-oyoq shakar bilan, shakar emas, limmo-lim qand bilan to'la. U qamishzorning suvi shunday shirinki, xuddi sharbatning o'zginasi; suvning ostida esa balchiq o'rniga shakar qatlamlari bosilib yotadi. G'arbiy chegarasi baland tog' bilan o'ralgan bu o'rmondagi to'rt fasl ham bahorni eslatardi. U yerda qishin-yozin rayhonlar gurkirab ko'karib yotardi-yu, asalpaz bolarilar u gulzorning bog'bonlari edilar. Bu yerdagi asalarilarning son-sanog'i yo'q bo'lib, hammasi shu tog' oralarini asal bilan to'latib yotardilar. U tog'ning qaysi toshiga nazar solmang, undan bir buloq suvidek asal oqib chiqardi. Odamlar u tog'ning qay tomonidan o'tmasinlar, jilg'a-jilg'a bol oqib yotganini ko'rardilar.

Bu tog'da ming-minglab kiyik galalari gul va asal ichida gijinglab yurardi. Qamishzorida esa bug'i va marallarning oyoqlari shakar shiralariga yopishib, sayd va tutqun bo'lib yotardilar.

Suv bilan to'la to'qaylarida kumushrang baliqlar sonsiz bo'lib, falak balig'i bo'lmasli oy bularga nisbatan ko'rimsiz edi. Yana o'rmon atrofida ovlash uchun har turli hayvonlar behisob edi. Endi qishloqning odamlar istiqomat qiladigan shaharchasiga kelganimizda, vasfi tasvirga sig'masdi. Uning qay tarafiga qaramang, go'zalligidan ko'zingiz qamashardi.

Bu o'rmonning chor atrofini qalam bilan band etdim. Yeri bag'oyat tekis, gul va sabzalari benihoya ko'p". Matnni peyzaj ichida peyzaj deyish ham mumkin, chunki o'rmon peyzaji ostida uning qushlari, jonivorlari, hidi, daraxtlari, esayotgan shamol, anbar atri, bo'tako'z guli, ilon, quyosh, tuproq, hindiy yong'oqlar, yong'oqzor, dorchin, zaytun daraxtlari, osmon, tok, Hulkar yulduz, Uqob yulduzi, to'ti, mayna, tovus, qirg'ovul, kaklik, sarv daraxti, Chinor, Sind daryosi, Hind shahri, qamishzor, qamish, tog', bahor, rayhon, gulzor, buloq suvi, asalari, asal, kiyik galalari, bug'i, maral, to'qay, sabza, yashil osmonlari obrazli tasvirlangan. Mazkur 43 ta takrorlanmas peyzaj elementi orqali peyzaj murakkab sintaktik butunlikni tashkil etgan. Peyzaj matnida "asal" ham peyzaj elementiga aylangan: "U tog'ning qaysi toshiga nazar solmang, undan bir buloq suvidek asal oqib chiqardi. Odamlar u tog'ning qay tomonidan o'tmasinlar, jilg'a-jilg'a bol oqib yotganini ko'rardilar". Asal bu o'rinda oddiy predmet emas, balki peyzajni tashkil etuvchi unsurga aylangan, chunki asal suv o'rnida ishlatalilgan. Tasvir mantiqsiz bo'lmasligi uchun muallif uning asosini oldinroq keltirib o'tadi: "Bu yerdagi asalarilarning son-sanog'i yo'q bo'lib, hammasi shu tog' oralarini asal bilan to'latib yotardilar". Biroq suv qishin-yozin oqadi-ku, bol qishda qanday oqsin, degan raddiyalarning oldini olgan holda, asalarining qishda asal yig'ishi mantiqsiz bo'lmasligi uchun muallif uning ham asosini "U yerda qishin-yozin rayhonlar gurkirab ko'karib yotardi-yu, asalpaz bolarilar u gulzorning bog'bonlari edilar" tarzida oldinroq keltirib o'tadi. Rayhonlar qishin-yozin gullashini esa muallif quyidagicha asoslaydi: "G'arbiy chegarasi baland tog' bilan o'ralgan bu o'rmondagi to'rt fasl ham bahorni eslatardi".

Mazkur peyzaj matnida keltirilgan "hid" so'zi ham peyzaj elementi qatoriga kiritildi, chunki peyzaj tasvirida hidga alohida vazifa yuklatiladi, ya'ni hid tuyish idrok etish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Hid bilish idrok jarayonini teranlashtiradi, recipient aynan o'sha makonni shu hid bilan ham assotsiatsiyalaydi, xotirasida saqlaydi. Matnda hid bilan bog'liq 5 ta so'z birikmasi ishtirok etgan: **anbar atrining hidi, bo'tako'z gulining bo'y, sandal hidi, yong'oq hidi, dorchinning hidi**. Hid bilan bog'liq tushunchalarning teran idrok etilishida fe'llar yordamga keladi. Harakatsiz bo'lib turgan hid, fe'llar yordamida harakatlanadi: **anbar atrining hidi esar, qora tuprog'idan esa bo'tako'z gulining bo'y anqir edi, sandal daraxti tomonidan esgan shamol kishi dimog'ini sandal hidiga g'arq qilar edi, bu hidlar butun tog' va o'rmonlarni tutib ketgan, tuproqlar ham sandal isi bilan qoplangan edi, go'yo yong'oq hididan falakning boshi aylanadigan bo'lib qolgan** (ibora), **dorchinning hidi kelar edi**.

Ushbu murakkab sintaktik butunlik (MSB) bilan ifodalangan peyzaj matni idrokini teranlashtiruvchi yana bir sezgi organlaridan – eshitish ham samarali qo'llangan: **Gala-gala ajoyib**

TILSHUNOSLIK

to'tilarning dilkash navolari o'monning hamma yog'idan eshitilib turardi, unga solib qo'yilgan maynalar, qayoqdan chiqishni bilmay, tutqunlikdan zorlanib sayrar va gapirardilar.

Ushbu peyzaj matni MSB bilan ifodalangani sababli peyzaj matni idrokini ta'minlaovchi barcha unsurlarni ko'rish mumkin. Masalan, ta'm bilish bilan bog'liq tushunchalar ham qo'llangan: *Bu qamishlarning ichi boshdan-oyoq shakar bilan, shakar emas, limmo-lim qand bilan to'la. U qamishzorning suvi shunday shirinki, xuddi sharbatning o'zginasi; suvning ostida esa balchiq o'rniqa shakar qatlamlari bosilib yotadi.*

Shunday unsurlardan yana biri rang ifodalovchi tushunchalardir: *qora, o'rmondagи chinorlar o'z panjalarini (shox-shabbalarini) xinaga bo'yagandek, oftob nurlariga bo'yab olganlar, sariq, ko'm-ko'k, yashil, qizil, olov shu'lasi rangida, qizil-yashil, oltinrangli, to'q ko'k-lojuvard, tillarang, zumurraddek.* Bu o'rinda *xinaga bo'yagandek, oftob nurlariga bo'yab olganlar, olov shu'lasi* birliklari aynan to'q sariq rangni ifodalash uchun xizmat qilgan.

XULOSA

Shu tariqa, badiiy asar, xususan, tabiatni tasvirlashda "muallifning transsendentlik prinsipi amal qiladi" deb xulosa chiqarish mumkin: hikoyachi hamma joyda mavjud, tashqi olamning barcha ma'lumotlari, qahramonlarning psixologik holatlari uning bevosita kuzatuvida ochiq bo'ladi.

Muallif shaxsi tabiatni tavsiflashda o'zini bevosita namoyon qilishga qodir bo'ladi. Muallif shaxsi bavosita – leksemalar, birliklar, iboralarni tanlash yo'li bilan ham namoyon bo'lishi mumkin. Kontekstda qayta-qayta takrorlanadigan leksemani o'rganish tilshunos-tadqiqotchini ushbu leksemaning obrazli tizimni shakllantirishda ahamiyati to'g'risida xulosaga olib keladi, bu muallifga butun asarning hissiy kayfiyatini yetkazishga yordam beradi.

Muallif shaxsi "makon kompozitsiyasi" vositasida ham namoyon bo'lishi mumkin. M.L. Gasparovning fikricha, bunday matnlarda asta-sekin torayib, psixologizatsiya qilinadi. Peyzaj lirikasi matnlari chegarasida interiorizatsiya (lotincha "interior – ichki") amalga oshadi, ya'ni tashqi olam tasviridan lirik subyekning ichki holatiga o'tish yuz beradi. Kuzatilayotgan olam boshdan kechirilgan olamga aylanadi, tashqidan ichkiga aylanadi, "interiorizatsiyalashadi". Shunday qilib, tabiatni badiiy tasvirlash asarning lingvopragmatik makonini shakllantirish vositalaridan biri sanaladi. U muallif, matn va o'quvchining kreativ faoliyati intensiyalarining faol o'zaro ta'sirini nazarda tutadi. Peyzaj matnlari sotsiopragmatik fenomen hisoblanadi: u subyek-xabarchi (uning aksiologik ustakovkalari), kompozitsion kengayishning freym modeli (tavsiflanayotgan denotativ vaziyat semantikasi va "Statik tavsif" kompozitsion-nutqiy shakli yoki til moddiyatining elementar kognitiv-til modeli sifatidagi "Dinamik tavsif") va sotsiomadaniy distributsiya (muvofig badiiy yo'nalish xususiyati) xususiyatlarini integratsiyalaydi. Peyzaj tavsifining ushbu mezonlari badiiy kommunikatsiyaning pragmatik niyatini amalga oshirish, tilda namoyon etish imkonini beradi. Badiiy asardagi tabiat tavsifi ushbu makronutq aktining matn izchilligini ta'minlovchi pragmalingvistik toifalari, masalan, badiiy matn muallifining intensiyasi, hikoyachi va adabiy asar qahramonlarning strategiyasi, shuningdek, empatiyaning pragmatik yo'nalishi bilan bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, "hikoyachi o'zi yaratgan dunyo haqida so'zlaydi", buning uchun til va nutqning barcha vositalarini qo'llagan holda turli xil usullardan foydalanadi, bunda ular orasida asosiy rol leksik va sintaktik birlklarga berilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Пришвин М. Собр. соч. в 6-ти т. - М., 1965.
2. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. -М., 1981.- 138 с.
3. Погожева О.В. Способы презентации скрытых смыслов в структуре художественного текста: когнитивный аспект // Вестник Адыгейского государственного университета. - Майкоп, 2009. Вып. 4(52). С. 170-175.
4. Алишер, Навоий. Хамса: Садди Искандарий. Насрий табдил / Алишер Навоий; И.Махсумов нусхаси асосида тўплаб, нашрга тайёрлопчи М.Абдулхайр. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – Б.225-229.
5. Киклевич А. Эстетическая функция текста // Киклевич А. Притяжение языка. Т. 1. Семантика. Лингвистика текста. Коммуникативная лингвистика. - Olstyn, 2007. С. 281-301.
6. Куршакова Т.Д. Лингвопрагматические и когнитивные аспекты презентации языковой личности в художественном описании природы. Автореф. дисс.канд.фил.наук. Краснодар, 2011.
7. Дьяченко Ю.А. Лексема **трава** в повести Е.И. Носова «Усвятские шлемоносцы» // Интерпретация текста: лингвистический, литературоведческий и методический аспекты: Мат-лы II Междунар. науч. конф. (Чита, 30-31 окт. 2009 г.). - Чита: ЗабГГПУ, 2009. С. 50-51.
8. Борисов А.А. Описание природы как средство обеспечения коммуникативно-прагматической когерентности художественного текста: автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Ставрополь, 2009.